



## OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA IJTIMOIY SHERIKLIK TIZIMINI NAZORAT QILISHNING ASOSIY SHAKLLARI

Sharipov Hayotjon

**Annotatsiya:** Oliy ta'lismuassasalarida ijtimoiy sheriklik tamoyillarini takomillashtirishda kasaba uyushmalarining faoliyati natijalarini aniqlash, ish beruvchilar bilan olib borilgan muzokaralar, ularning natijasi, qabul qilingan jamoa shartnomalarining bajarilishi, jamoa shartnomasi shartlarini bajarilishi monitoringini yuritish, aniqlangan muammolarni yechimini topishi bilan bog'liq masalalar o'rganilgan.

**Kalit so'zlar:** oliy ta'lism, menejment, kasbiy faoliyat, legitimlik, muammo, jamoaviy shartnoma.

Ijtimoiy sheriklikning faoliyat doirasini faqat mehnat munosabatlari bilan cheklayotgan mualliflarning asarlarini tahlil qilish ular beixtiyor ijtimoiy sheriklikning boshqa sohalarida ham amal qilayotganiga etibor qaratayotganini ko'rsatadi. Shunday holatni rossiyalik mualliflar L.A.Mixeev, V.M.Kyazimov singarilarning asarlarida ham uchratish mumkin. L.A.Mixeev ijtimoiy sheriklik predmeti doirasiga jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy taraqqiyoti masalalarini ham kiritadi. Boshqacha qilib aytganda, mazkur fenomenning amal qilish doirasini mehnat munosabatlari sohasidan ancha chetga olib chiqadi.

XX asr oxiri va XXI asr boshlarida "sektorlararo ijtimoiy sheriklik" konsepsiysi ko'p mamlakatlarda, shu jumladan mdhga 'zo mamlakatlarda keng tarqala boshladi. Mazkur konsepsiaga ko'ra, ijtimoiy sheriklik sub'ektlari hokimiyat, biznes va nodavlat, notijorat tashkilotlari vakillari bo'lib, uning predmeti tarkibiga ijtimoiy sheriklikning barcha sohadagi muammolari kiritiladi. "sektorlararo ijtimoiy sheriklik" ikki yoki uch sektor,(davlat biznes, notijorat sektor) ijtimoiy muammolarni hal qilishda olib borayotgan o'zaro konstruktiv harakatlarni ifodalaydi. Bunday konstruktiv o'zaro ta'sir sinergetika samaradorligini beradi, hamda o'zaro munosabtlarga kirishayotgan barcha tomonlar va aholiga foyda keltiradi.

Ijtimoiy sheriklikka berilgan ta'riflarni qisqacha ko'rib o'tish shundan guvohlik breadiki, mualliflar mazkur kategoriyanı jamiyat hayotining turli sohalariga tadbiq iqlishmoqda. Shu bilan birga mualliflar mazkur kategoriyaning turli jihatlariga e'tibor qaratishmoqda. Bunday holat ijtimoiy sheriklikka berialayotgan talqinlarni tasnif iqlish va tizim holiga keltirishda bir nechta asoslarga e'tibor berish zarurligidan guvohlik beradi.



Ijtimoiy sheriklikka berilayotgan ta'riflarni tizim holiga keltirishda mazkur ta'riflar qaysi fan doirasida berilayotganini asos qilib olish zarur. Bu asosga ko'ra, ijtimoiy sheriklikning falsafiy, sosiologik, iqtisodiy, siyosiy va boshqa talqinlarini farqlash mumkin.

Falsafiy yondashuv doirasida ijtimoiy sheriklik muammosiga ijtimoiy va davlat organlari munosabati nuqtai nazaridan yondashiladi va "progress", "ijtimoiy munosabatlar", "birdamlik", "ob'ektiv ehtiyojlar" singari kategoriyalar yordamida yoritiladi. Bunday yondashuv doirasida ijtimoiy sheriklikning ijtimoiy guruhlar, qatlamlar, sinflar va boshqa ijtimoiy birliklar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarning alohida tipi ekaniga e'tibor qratiladi.

Sotsiologik yondashuv ijtimoiy sheriklikning tuzilmasiga, funksiyalariga hamda ijtimoiy-madaniy xususiyatlariga e'tibor qaratadi. Mazkur yondashuv ijtimoiy sheriklikni uning asosiy sub'ektlari va institutlarining turi, ijtimoiy, kasbiy guruhlar, qatlamlar faoliyatining mazmuni, shakllari, sharoitlari tizimi ekaniga etibor beriladi. Mazkur yondashuv vakillari ijtimoiy sheriklikning birdamlik va muammo uchun mas'uliyat hissiga asoslangan ijtimoiy faoliyat ekanini ham nazarda tutishadi.

Jamiyat taraqqiyotining siyosiy jihatlarini tadqiq qilayotgan tadqiqotchilar ijtimoiy sheriklikni jamiyatning siyosiy barqarorligi, turli ijtimoiy qatlamlar, aholi guruhlarining siyosiy manfaatlarini ro'yobga chiqarishga xizmat qiluvchi siyosiy institut sifatida talqin qilishadi. Bu yondashuv tarafdarlari, shuningdek, ijtimoiy sheriklik siyosiy institutlar faoliyati hamda siyosiy jarayonlar bilan bevosita bog'liq ekanini nazarda tutishadi.

**Ijtimoiy sheriklik talqinlarini tizim holiga keltirishda yana bir asos sifatida uning amal qilish doirasi sohasiga e'tibor qaratiladi.** Shu masalada bir-biriga zid bo'lgan ikki xil yondashuvni kuzatish mumkin. Ulardan birinchisining tarafdarlari ijtimoiy sheriklikni butun jamiyat doirasidagi o'zaro ta'sir sifatida talqin qilishadi. Boshqacha qilib aytganda, bunday talqinga ko'ra ijtimoiy sheriklik jamiyat, undagi barcha individlar, qatlamlar ijtimoiy guruhlarning mavjudlik usulidir. Demak ijtimoiy sheriklik jamiyatning barqaror rivojlanishining shartidir. Mazkur yondashuv ijtimoiy sheriklikning amal qilish doirasi butun jamiyat ekanini e'tirof etadi.

Ikkinci yondashuv tarafdarlari fikriga ko'ra, ijtimoiy sheriklik sub'ektlarining doirasi ham, uning amal qilish davri ham cheklangan bo'ladi. Bu yondashuv tarafdarlarining ko'pchiligi ijtimoiy sheriklikning ikki modelini farqlashadi: tred-yunionistik va sektorlararo model. Tred-yunionistik model sifatida ular ijtimoiy mehnat sohasida vujudga kelgan "tripartizm" tizimini tushunishadi. Bu tizim ish beruvchilar, yollanma ishchilar va davlat hokimiyati organlari o'rtasida vjudga kelgan mehnat munosabatlarini ifodalaydi. Sektorlararo model esa yuqorida



ko'rsatib o'tilganiday, hokimiyat, biznes va nodavlat notijorat tashkilotlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni anglatadi.

Ba'zi mualliflar ijtimoiy sheriklik munosabatlari vujudga kelishi va rivojlanishini faqat bozor iqtisoditi bilan bog'lab izohlashadi. Ularning fikriga ko'ra ijtimoiy sheriklik ijtimoiy mehnat munosabatlarining alohida ko'rinishi bo'lib u yollanma ishchilar va ish beruvchilarning manfaatlarini optimal tarzda muvozanatga keltiradigan bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyat uchun xosdir. Boshqacha qilib atyganda, ijtimoiy sheriklikning vujudga kelishi jamiyatni ish beruvchilar va yollanma ishchilarga bo'lib tashlaydigan ishlab chiqarish vositalariga xususiy mulkchilikning kelib chiqishi bilan bog'liqdir.

Ijtimoiy sheriklikning sektorlararo konsepsiysi tarafdarlari uning mavjudligini boshqa mezonlar bilan bog'lab izohlashadi. Ular ijtimoiy sheriklikning mavjudligini mamlakatda fuqarolik jamiyatni borligi bilan bog'lab tushuntirishadi. Ularning fikriga ko'ra, ijtimoiy sheriklik fuqarolik jamiyatiga xos bo'lib u jamoatchilikning faol rolini ko'zda tutadi.

Ijtimoiy sheriklik ta'rifilarini tizimga solishning yana bir asosi uning sub'ekti, ob'ekti va predmeti bilan bog'liq bo'lgan xususiyatlaridir. Ilmiy adabiyotlarda bu assoga ko'ra ham, tadqiqiotchilarning ikki asosiy nuqtai nazari ko'zga tashlanadi.

Birinchi guruh mualliflarining fikriga ko'ra, ijtimoiy sheriklikning sub'ektlari sifatida jamiyatning bir turdag'i guruhlari va qatlamlari namoyon bo'ladi. Bunda ikki asosiy tezisga e'tibor qaratiladi.

Birinchidan ijtimoiy sheriklik sub'ektlari alohida individlar emas, balki guruhlardir.

Ikkinichdan ana shu guruhlarga kirgan individlar bir qator belgilarga ko'ra o'zaro aynan ekanliklarini anglashadi. Ana shnuday anglash ularning guruh doirasidagi jipsligi va boshqa guruhlardagi individlardan farqlarini belgilaydi. Ana shunday aynanlik odatda mnfaatlar, ehtiyojlar va qadriyatlarning umumiyligi bilan ham mustahkamlangan bo'ladi.

Ikkinchi yondashuvning o'ziga xosligi shundaki, sheriklar sifatida ijtimoiy guruhlar va qatlamlar emas, balki ana shu guruhlarning manfaatlarini ifodalovchi institutlar e'tirof etiladi. Bunday institutlar sifatida hokimiyat organi institutlari, fuqarolik jamiyatni institutlari tushuniladi.

Ijtimoiy sheriklik talqinlarining asoslarini tizimlashga yakun yasar ekanmiz, quyidagi xulosalarga kelish mumkin: birinchidan, ijtimoiy sheriklikning talqinlari turlituman bo'lib, ular o'rtasidagi tafovutlar bu muammoga fanlar o'rtasidagi yondashuvlarning o'ziga xosliklari bilan bog'liq.



Shuningdek, yondashuvlar o'rtasidagi tafovutlar ijtimoiy sheriklikning amal qilish sohasi, uning sub'ekti va ob'ektining xususiyatlari bilan izohlanadi. Ijtimoiy sheriklik bo'yicha asosiy talqinlarning mohiyati uni turli ijtimoiy sub'ektlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir tizimi sifatida talqin qilishdan iborat. Bunday o'zaro ta'sir sub'ektlarning manfaatlarini ro'yobga chqarish va kelishtirishni ta'minlaydi.

Mehnat munosabatlarini davlat tomonidan tartibga solishning an'anaviy ravishda muhim vositasi hisoblangan kasaba uyushmalari va jamao shartnomalarining roli va istiqbolini baholash Amerika jamiyatshunosligida alohida o'rin tutadi. Ularni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash ko'p jihatdan mehnatga haq to'lash va mehnat sharoitlarini standartlashtirishga, mehnatkashlarni mamlakat ijtimoiysiyosiy hayotiga integratsiyalashga, ijtimoiy nizolarni kamaytirishga yordam berdi.

### **ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Abduraxmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti va sosiologiyasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012. – B.119.
2. Khoon, K. A., R. Shukor, O. Hassan, Z. Saleh, A. Hamzah, and R. Ismail. 2005.
3. Khoon, K. A., R. Shukor, O. Hassan, Z. Saleh, A. Hamzah, and R. Ismail. 2005.
4. "Hallmark of a World-Class University." College Student Journal (December).
5. Veber M. Osnovnie sosiologicheskie ponyatiya // Izbrannie proizvedeniya. – Moskva: Progress, 1990.
6. Veber M. Istoriya xozyaystva. – Moskva: KANON-press-S, 2001.
7. Parsons T. Ponyatie obshchestva: komponenti i ix vzaimootnosheniya // Amerikanskaya sosiologicheskaya misl'. – Moskva, 1996. – S.494 – 526.

